ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2025 / № 3. 1-3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 3. 1-3

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

XUDOYBERGANOVA DURDONA
Metaforalar shakllanishida antropotsentrik omillarning o‘rni 7

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Aksiolingvistikada qadriyat tushunchasi va uning turlari 10

SOBIROV ABDULHAY SHUKUROVICH
Andijon dialektal zonasi haqida 16

HAKIMOV MUHAMMADXON XO‘JAXOVICH
Genderoleksemalarning nominativ farqlanishi 20

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH
Dunyo tilshunosligida o‘zlashma so‘zlarga munosabat masalasi 25

ДУСТМУРОДОВ МАЪРУФЖОН МАНСУР ЎҒЛИ
Уйғур хоқонлиги даври ёдномалари туркумидан:
тариат (ТЭРХ) битиги ҳақида баъзи мулоҳазалар 28

UBAYDULLAYEV ALISHER ABDUSALOMOVICH
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» qo‘lyozmasining lingvistik tahlili 33

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Badiiy matnning presuppozitiv tahlili 38

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod nasriy nutqida metaforaning statistik tahlili 42

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Lingvistik kodlar aralashuvi tushunchasi va uning
lakunarlik hodisasini bartaraf etishdagi imkoniyatlari 48

ESHNIYOZOVA GULHAYO HAMROQUL QIZI
Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida badiiy
san’atlarni qo‘llash mahorati 51

SULAYMONOV BOBIR
Izoh tipidagi o‘quv lug‘atlarda leksikografik
semantizatsiyaga qo‘yiladigan talablar 55

BOYSARIYEVA SAODAT
Morfem o‘quv lug‘atining amaliy jihatlari 58

DAVIDOV YUNUS JUMMAYEVICH
Badiiy asarlarda ko‘pma’nolilikning uslubiy xususiyati 61

ZARIPOVA MATLUBA QULFITDINOVNA
O‘zbek va rus tillarda tarjimaning lingvokulturologik
va peyorativlik muammolari 64

AZIZ AMINI
Frazeologik birliklarning o‘rganilishi va ularning leksikografik
xususiyatlari (Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqi misolida) 66

МУНДАРИЖА

ALLAMURATOVA XOSIYAT
O‘zbek antroponimikasida apotropeik komponentlarning
sodda va qo‘shma ismlarda ifodalanishi 69

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Синонимические отношения в словах с
гендерными признаками узбекского языка 73

HATAMOV ZIYODIN MAMADULLAYEVICH
Badiiy uslubda modal so‘zlarning funksional-stilistik xususiyatlari 76

ALIMOVA E’TIBOR KAROMAT QIZI
O‘zbek xalq ertaklarida mifonim va teonimik birliklar 81

MUXAMMADALIYEVA SHAXZODA MAXMUD QIZI
Maqollar orqali ramziy ma’noning ifodalanishi 89

ABRUYEVA ZAXRO SHOKIR QIZI
O‘zbek tili murojaat shakllari tizimida kognitiv metaforaning o‘rni 92

XUDAYBERGANOVA MUNIRA
«Muqaddimatu-l-adab» asari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar:
tilshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari 96

ABDUQAHHOROVA XOSIYAT ABDURASUL QIZI
Tarixga oid terminlarda o‘z va o‘zlashma qatlam 100

SHADMANOVA ALYONA SERGEYEVNA
Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasi 104

QOSIMJONOVA FARANGIZ FARID QIZI
Iboralarning so‘z turkumlariga munosabati 108

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Эътибордан четда қолган нашр 111

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Психологик таҳлил ва бадиий драматизм
(Эркин Аъзамнинг «Таъзия» ва «Ступка» ҳикоялари мисолида) 117

АЛИМОВ ПАРДА, АВРИДДИНОВ ЖОБИР
Бадиий характер муаммоси 121

YULDOSHEV DILMUROD
Matyoqub Qo‘shjonov talqinida qodiriy fenomeni («O‘zbekning o‘zligi» asari misolida) 123

ДИЛФУЗА ПАРДАЕВА
Художественные интерпретации образа Амира Нимура и его
времени в русской и узбекской поэзии XX века 129

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA
Taxmislarning spetsifik belgilari 132

мазкур манбалар Уйғур хоқонлиги бўйича кенгроқ тасаввур қилишга ёрдам беради. Биз қуйида Тариат битиги ҳақида мулоҳаза юритишга ҳаракат қилдик.

Resume. The period of the Uyghur Khaganate (744-840) occupies a special place in the history of the Turks in terms of its statehood and cultural heritage. In particular, the inscriptions written in the language of the khagans of this dynasty contain valuable information about the statehood, military processes, and administrative system of the khaganate. Inscriptions such as Tariat, Tes, Shine Usu, and Karabalgasun, which are second only to the Chinese chronicles in terms of the period, provide information on various topics. While the Shine Usu inscription focuses on military actions, clashes, and the unity of the state and people, the Tariyat inscription is dominated by praise for administrative and territorial victories. In this regard, these sources help to gain a broader understanding of the Uyghur Khaganate. Below we have tried to consider the Tariyat inscription.

Резюме. Период Уйгурского каганата (744–840 гг.) занимает особое место в истории тюрков с точки зрения государственности и культурного наследия. В частности, надписи на языке каганов этой династии содержат ценную информацию о государственности, военных процессах и административной системе каганата. Такие надписи, как «Тариат», «Тэс», «Шинэ Усу» и «Карабалгасун», уступающие по объёму только китайским хроникам, содержат информацию по различным темам. В то время как надпись «Шинэ Усу» фокусируется на военных действиях, столкновениях и единстве государства и народа, в надписи «Тариат» преобладает восхваление административных и территориальных побед. В связи с этим данные источники помогают расширить представление об Уйгурском каганате. Ниже мы попытались рассмотреть тариатскую надпись.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

OGAHIY TARJIMASIDAGI «GULISTON» QO‘LYOZMASINING LINGVISTIK TAHLILI

Ubaydullayev Alisher Abdusalomovich,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Tarixiy asarlar tilini o‘rganishning muhim jihatlaridan biri-davr tili birliklarining berilishini va ifodalanishini aniqlashdir. Shuning uchun ham badiiy asarda til asosiy o‘rinni egallaydi. Badiiy asar tili davr adabiy tilining o‘ziga xos ko‘rinishiga va xususiyatlariga ega bo‘lgan shakllardan biri hisoblanadi. Uning tili ham til taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini o‘zida aks ettiradi. Shuningdek, har bir davrga oid badiiy adabiyotda ma’lum bir adabiy tilning turli uslublari keng qo‘llanishini kuzatish mumkin.

O‘tgan asrning ikkinchi yarmi hamda so‘nggi yillarda nashr yuzini ko‘rgan bir qator o‘quv qo‘llanmalari u yoki bu adib, yozuvchi shoir asarlari tilining fonetik-fonologik, morfem-morfologik, leksik-semantik, sintaktik sathlari nuqtai nazardan baholi qudrat yoritishga qaratildi. Ular, shubhasiz, o‘zbek adabiy tili tarixi, taraqqiy bosqichlari, unda yuz bergan fonetik, leksik va grammatik hodisalar borasida o‘quvchiga nisbatan durust ma’lumot berishga xizmat qiladi.

Umumxalq tilining rivojlanishi hamma vaqt uning boshqa tillar bilan o‘zaro aloqalarining kengayishi bilan bog‘liq holda davom etadi. Ma’lumki, boshqa til unsurlarining kirib, o‘zlashib qolishi tarixiy va qonuniy hodisa hisoblanadi. Bu tarixiy jarayon muayyan xalq yoki tilning o‘ziga xos taraqqiy etishiga, til lug‘at tarkibining boyishiga olib keladi[1]. Bunday o‘zaro ta’sir

[1] Tursunov U., O‘rinboyev B., Aliyev A. O‘zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent, 1995. – B. 26.

ayrim davrlarda kuchsiz darajada bo‘lsa, boshqa bir davrda sezilarli va samarali kechadi. Shu bilan birga, ba’zi vaqtlarda mazkur jarayon stixiyali tarzda ro‘y bersa, uni ma’lum qonun-qoidalar asosida yo‘lga solish, unga insoniyatning faol aralashuvi talab etiladi[1].

O‘zbek tili leksikasida eskirgan so‘zlarning asosini tashkil etgan istorizm va arxaizmlar funktsional jihatdan chegaralangan leksik qatlamga mansub bo‘lib, faqat arxaizmlargina o‘zining sinonimik qatoriga ega. Ilmiy adabiyotlarda, narsa-predmet yoki hodisa zamonaviy bo‘lib, uning o‘tmish nomi yoki atamalaridan biri iste’moldan chiqadi, eskiradi, deyilgan[2]. Xususan, Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» qo‘lyozmalarini matniy tadqiq qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayon, bir tomondan, o‘zbek qo‘lyozma merosining o‘ziga xos xususiyatlarini va o‘zbek kitobat san’ati tarixini chuqurroq o‘rganishga ham imkon beradi.

F.G‘anixo‘jayev Ogahiyning tarjimonlik xizmatlari alohida tahsin va tadqiqqa munosibligini ta’kidlab, uning mumtoz mutarjim sifatida xorijda ham tanilishi yolidagi sa’y-harakatlarini e’tirof etadi[3]. Bu e’tirof Ogahiy tarjimalarining universal qiymatini va madaniy almashinuvdagi rolini ko‘rsatadi.

N.Komilov Ogahiy ijodining serqirraligini o‘rganishning ilmiy-ma’naviy ahamiyatini alohida qayd etadi. Uning fikricha, Ogahiy mahorat bilan tarjima qilgan asarlar o‘zbek adabiyoti tarixining muhim qismini tashkil etadi. Bu asarlarni o‘rganmay chetlab o‘tish yoki ularga yetarli e’tibor bermaslik, ulkan adibning ijodini to‘liq tasavvur etmaslik yoki adabiyot tarixining salmoqdor bir qismini inkor etish bilan barobardir[4]. Bu fikr Ogahiy tarjimalarining nafaqat adabiy, balki tarixiy-madaniy ahamiyatini ham ta’kidlaydi.

O‘zbek adabiyotida, aynan iqtisodiy-siyosiy va ma’rifiy tanazzul davrida Ogahiy kabi ko‘lamli ijod mahsulotlarining yuzaga kelishi tasodifiy emas. Bu Xorazmda tarjima ishining yuksak darajaga ko‘tarilishi uchun muayyan shart-sharoitlarni vujudga keltirgan tashkiliy uyushganlik va davlat hamda millat ahamiyati nuqtai nazaridan yondashuvning natijasidi. Bu holat Ogahiyning faoliyati shaxsiy iste’dod bilan bir qatorda, davrning madaniy-ma’rifiy talablari va hukumatning ushbu sohaga e’tibori mahsuli ekanligini anglatadi.

Ogahiyning tarjimonlik mahorati, uning tarjimalarini asliyat bilan qiyosiy tahlil qilish kabi masalalar bilan birga, bu asarlarning mavjud qo‘lyozmalarini tadqiq etish va ayrimlarining ilmiy-tanqidiy matnini yaratish ham dolzarb masalalardan biridir.

«Guliston» tarjimasidagi asarning nashr etilmay qolgan qismlari orasida buyuk tasavvuf namoyandalari bilan bog‘liq hikoyatlar ham mavjud. Bunday parchalarning senzuraga uchrashi sho‘ro davrining diniy-mafkuraviy siyosati bilan bevosita bog‘liq edi. Masalan, quyida Abdulqodir Giloniyga oid hikoyat keltirilgan:»Abdulqodir Giloniy rahmatullohi alayhni Ka’ba haramida ko‘rdilarkim, boshini toshga urub der erdi: «Ey bor Xudoyo, gunohimni bag‘ishlag‘il va agar uqubatga sazovor bo‘lsam, meni go‘rdin ko‘r etib turg‘izgil, to yaxshilarning oldida sharmsor bo‘lmagaymen».

Qit’a:

Ajz tufrog‘iga yuzim qo‘yaram
Har sahar vaqtidakim, esgay bod.
Uylaki, hargiz seni unutmasmen,
Bandani hech aylagunmu yod

Mazkur parcha tasavvuf falsafasining asosiy g‘oyalaridan biri bo‘lgan kamtarlik, tavba va Allohga mutlaq taslimiyatni aks ettiradi. Abdulqodir Giloniyning Ka’ba haramida gunohlariga iqror bo‘lib, o‘limdan keyingi holati haqida duo qilishi, insonning ma’naviy komillikka intilishi va oxirat hayotiga bo‘lgan e’tiqodini ko‘rsatadi. Uning «yaxshilarning oldida sharmsor bo‘lmagaymen» degan so‘zlari, shar’iy va axloqiy me’yorlarga rioya qilishning naqadar muhimligini, jamiyat oldidagi mas’uliyat hissini ifodalaydi. Bu Islom etikasi va axloqiy tarbiyasida sharm-hayo tushunchasining markaziy o‘rin tutishini ko‘rsatadi[5].

Qit’a esa zikrulloh (Allohni yod etish) va bandalik falsafasini chuqurlashtiradi. «Ajz tufrog‘iga yuzim qo‘yaram» satri insonning o‘z ojizligini tan olishi, Allohning qudrati oldida xokisorligini anglatadi. «Hargiz seni unutmasmen» ifodasi doimiy zikr va muroqabaga ishora qilib, Alloh bilan uzluksiz ma’naviy aloqada bo‘lish muhimligini ta’kidlaydi. Bu tasavvufda *fanofillah* (Allohda erish) holatiga erishish yo‘lidagi ma’naviy mashqlardan biri hisoblanadi[6].

Ushbu hikoyat va qit’aning Ogahiy tarjimasida mavjudligi uning nafaqat lingvistik mahoratini, balki Islom tasavvufiga oid chuqur bilimini ham namoyon etadi. Sa’diy Sheroziyning «Guliston»idan o‘girilgan bu parcha, o‘sha davr Xorazm jamiyatida tasavvuf g‘oyalarining keng tarqalganligi va aholi ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutganligini ko‘rsatadi. Biroq sho‘ro davrida bunday matnlarning nashr etilmasli-

[1] Muxtorov A., Sanaqulov U. O‘zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – B. 89-90.

[2] O‘zbek adabiy tilining taraqqiyoti. 3-jild. Leksika. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 152.

[3] غنی‌خواجه‌اف ف. فعال‌ترین مترجم آثار فارسی به ازبکی // نامه‌ی پارسی. سال ۲. شماره ۴ ص. ۰۹ – ۸۹

[4] Комилов Н. Муҳаммадризо Огаҳийнинг таржимонлик маҳорати. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация иш. – Тошкент, 1970. – Б. 6,12.

[5] Knysh, A. Islamic Mysticism: A Short History. – Brill, 2000, – PP. 150-155.

[6] Schimmel A. Mystical Dimensions of Islam. University of North Carolina Press, 1975, pp. 135-140.

gi, davlatning diniy mazmundagi adabiyotga nisbatan salbiy munosabati, ateistik targ‘ibot siyosatining bir qismi bo‘lgan. Bu ilmiy adabiyotda «tarixning qayta yozilishi» yoki «madaniy merosning siyosiy maqsadlarda o‘zgartirilishi» sifatida talqin etiladi[1].

Ommaviy nashrdan tushirib qoldirilgan hikoyatlarning ayrimlari islomiy aqidalar, g‘oyalar ilgari surilgan qismlardir. Masalan, «Mag‘rib daryosining kanorida bir porso kishi ko‘rdimkim, jismida og‘ir yarosi bor erdi va hech doru bila sog‘almas erdi. Ko‘b muddatlar hamul shiddatlig‘ ranjin chekib dag‘i shukr qilur erdi. Bir kishi anga dedi: «Chun sening holing budur, nega shukr etarsan?» Ul dedi: «Aning uchun shukr etarmankim, ma’siyatga giriftor bo‘lmay, musibatga giriftor bo‘lmishman, nedinkim, mardlar mundoq balolarg‘a sabr qilmishlar. **Bayt:**

Gar ravo ko‘rsa o‘lumni manga ul Yori aziz,

Ko‘ngluma jon g‘ami tushmakni dame qilma gumon

Bu hikoyat Islomdagi sabr va shukr tushunchalarining chuqur ma’naviy mohiyatini ochib beradi. Qahramonning og‘ir jismoniy aziyatga qaramay shukr qilishi, uning ma’siyat (gunoh) o‘rniga musibatga (balo) duchor bo‘lganini Allohning marhamati deb bilishi, Islom aqidasidagi qazo va qadarga iymon keltirish tamoyiliga to‘la mos keladi. Islomda musulmonning boshiga kelgan har qanday qiyinchilik, agar u sabr bilan qarshi olinsa, gunohlarga kafforat bo‘lishi, darajalarning ko‘tarilishiga sabab bo‘lishi ta’kidlanadi. «Nedinkim, mardlar mundoq balolarg‘a sabr qilmishlar» jumlasi sabrning mardlik va kuchli iymon belgisi sifatida talqin etilishini ko‘rsatadi. Bu axloqiy-didaktik adabiyotda keng tarqalgan motiv bo‘lib, insonni qiyinchiliklar oldida ruhiy matonat ko‘rsatishga undaydi. Shayx Sa’diyning asarlarida, xususan «Guliston» va «Bo‘ston»da, bunday didaktik hikoyatlar orqali insoniy fazilatlar, Allohga tavakkal va qanoatning ahamiyati doimiy ravishda uqtiriladi.

Baytdagi «Gar ravo ko‘rsa o‘lumni manga ul *Yori aziz, Ko‘ngluma jon g‘ami tushmakni dame qilma gumon»* satrlari esa Allohga bo‘lgan muhabbat va taslimiyatning eng yuqori cho‘qqisini ifodalaydi. *Yori aziz* (aziz do‘st) Allohga ishora bo‘lib, hatto o‘lim ham Uning irodasi bilan sodir bo‘lsa, bunga rozilik bildirish va hech qanday g‘am chekmaslik ma’nosini anglatadi. Bu tasavvufdagi rizo (Allohning qazo va qadariga rozi bo‘lish) maqomiga yaqindir. Islom mistitsizmida, Alloh bilan muhabbat rishtalarini mustahkamlagan solik uchun har qanday holat, hatto olim ham, sevimli Zotga yaqinlashish vositasi sifatida qabul qilinadi[2].

Ushbu hikoyatning ommaviy nashrdan tushirib qoldirilishi sho‘ro davrining diniy mafkuraga qarshi kurashi, xususan, tasavvufga bo‘lgan salbiy munosabati bilan izohlanadi. Sho‘ro hokimiyati tasavvufni «reaksion», «xalqni zulmga moyil qiluvchi» va «ijtimoiy progressga to‘sqinlik qiluvchi» oqim sifatida talqin qilgan. Shu sababli, tasavvufiy g‘oyalar, Allohga mutlaq taslimiyat, qazo va qadarga iymon keltirish kabi mavzular aks etgan matnlar senzuraga uchragan yoki butunlay olib tashlangan.

Bunday senzura Ogahiy tarjimalarining asl va to‘liq shaklini xalqdan yashirishga qaratilgan bo‘lib, bugungi kunda ushbu parchalarning qayta tiklanishi va ilmiy tahlili milliy madaniy merosning asl holatini tiklash va o‘sha davr adabiy jarayonlarini to‘g‘ri baholash uchun g‘oyat muhimdir. Ushbu parchalar Ogahiyning nafaqat lingvistik, balki ma’naviy-axloqiy qarashlarini, uning diniy matnlarni tarjima qilishdagi mas’uliyatini ham yaqqol ko‘rsatadi.

V.V.Bartoldning Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatiga oid asarlarida ham hukmdorlarning ma’rifatga homiyligi va uning davlat boshqaruvidagi ahamiyati keng yoritilgan[3].

S.Dolimov nashri va 7768-ashyo raqamli qo‘lyozma o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilish, Ogahiyning «Guliston» tarjimasi matnshunosligida chuqur muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Bu farqlar nafaqat matnning asl holatini aniqlashda, balki o‘zbek mumtoz tarjima san’ati tarixini o‘rganishda ham katta ahamiyatga ega. Keltirilgan parchalardagi farqlar bir necha jihatdan muhimdir:

«Kitob xotimasi» qismidagi farqlar. S.Dolimov nashrida «Kitob xotimasi budururkim... «Guliston» kitobi tamom sarhadiga yetushdi. Bu kitobda o‘zga mualliflarning rasmi bila yuqorida o‘tgan shuaroning she’ridin bir necha abyot va ash’orni istiora tariqasi bila munosib va muvofiq joylarda kelturulmadi va har she’rnikim, munosib va muvofiq yerlarda raqam qildum, o‘z tab’imning zodasidurur».

7768-ashyo raqamli qo‘lyozmada «Kitob xotimasi» Hazrati Moliki musta’on inoyati bila «Guliston» kitobi tamom bo‘ldi. Bu kitobda o‘zga mualliflarning rasmi bila yuqorida o‘tgan shuaroning she’ridin bir necha abyot va ash’orni istiora tariqasi bila munosib joylarda kelturulmadi va har she’rnikim, munosib yerlarda yozdim, o‘z tab’imning zodasidurur».

Bu yerdagi eng muhim farq qo‘lyozmada *Hazrati Moliki musta’on inoyati bila* (Yordam so‘ralgan Zot – Allohning inoyati bilan) degan iboraning mavjudligidir. Bu iboraning nashrda tushirib qoldirilishi sho‘ro davrining diniy mafkuraga qarshi siyosati va ateistik targ‘iboti bilan bog‘liq. Asarni Allohning inoyati bilan

[1] Poliakov, S.P. “Historical Experience of the Soviet Periphery.” In The History of Central Asia, 2001, pp. 280-285.

[2] Chittick W. C. The Sufi Path of Love: The Spiritual Teachings of Rumi. Albany: State University of New York Press, 1983. pp. 115-120.

[3] Бартольд В.В. История культурной жизни Туркестана. Сочинения, Т. 2, Ч. 1. – М.: Наука, 1963.

tugallanishi haqidagi ishoralar senzura tomonidan nomaqbul deb topilgan. Nashrga tayyorlovchilarning ilojsiz holati, ya'ni asarni nashr etish uchun mafkuraviy talablarga bo'ysunishga majbur bo'lganliklarini yana bir bor tasdiqlaydi. Ushbu farq, matnning ma'naviy-axloqiy kontekstiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi va Ogahiyning diniy e'tiqodini aks ettiruvchi muhim tafsilotni yashiradi.

S.Dolimov nashridagi «Lekin sohib dillarning ravshan va musaffo ra'i olamoroylariga maxfiy va poshida qolmasunkim, shofiy mav'izalarining durlarin ibrat rishtasiga chekmishdururman. Pand va nasihatning talx va achchig' dorusin zarofat va latofat shahdi bila og'ushta qilmishdururman tokim qabul davlatidin ma'yus va mahrum va noumid bo'lub qolmagay»

7768-ashyo raqamli qo'lyozmada: «Lekin sohibdillarning ravshan ra'ylariga poshida qolmasunkim, shofiy mav'izalarining durlarin iborot rishtasiga chekmishman va nasihat talx dorusin zarofat shahdi bila og'ushta qilmish[men], tokim qabul davlatidin mahrum qolmag'ay.» Bunda *ibrat rishtasiga* o'rniga *iborot rishtasiga* birikmasining qo'llanilishiga e'tibor qaratish lozim. *Ibrat* (o'rnak, namuna) so'zining *iborot* (iboralar, so'zlar)ga almashtirilishi, matnning ma'naviy chuqurligini biroz kamaytirishi mumkin. Nasihatlarning «ibrat»ga yo'naltirilganligi, ularning amaliy ahamiyatini ko'rsatsa, «iborot»ga tortilishi ularning badiyat va lisoniy jihatidan mulohazaga undaydi. Shuningdek, «Ma'yus va mahrum va noumid bo'lub qolmag'ay» o'rniga «mahrum qolmag'ay» kabi qisqaroq shaklning qo'llanilishi, matnning ixchamroq ko'chirilganini yoki kotib tomonidan ayrim sinonimik takrorlarning tushirib qoldirilganini bildiradi.

Ko'rinadiki, asarning mavjud qo'lyozmalarini qiyosiy tahlil qilish matnshunoslik fani uchun muhimdir. Bu, nafaqat matnning to'g'ri va asl holatini tiklashga, balki Ogahiyning tarjimonlik uslubini, uning til imkoniyatlaridan qanday foydalanganini, Sa'diy Sheroziy asarini o'zbek adabiy muhitiga moslashtirish jarayonini aniqlashga yordam beradi.

Shuningdek, bunday tahlillar o'zbek mumtoz tarjima san'ati tarixini o'rganishda ham katta ahamiyatga ega. Qo'lyozmalar va nashrlar o'rtasidagi farqlar tarjima maktablarining xususiyatlarini, turli davrlardagi tarjima tamoyillarini va kotiblarning matn ustidagi ishlarini o'rganishga imkon beradi. Bundan tashqari, senzura ostida nashr etilgan asarlarning asl holatini tiklash, milliy madaniy merosni to'liq va xolis o'rganish uchun muhimdir. Ushbu turdagi tadqiqotlar adabiyotshunoslik, tarixshunoslik va manbashunoslik fanlarining o'zaro uyg'unligini ta'minlaydi. Ular muallifning ijodiy laboratoriyasiga kirish uchun bir darvoza vazifasini otaydi[1].

Muhammad Rizo Ogahiyning Sa'diy Sheroziyning «Guliston» asarini turkiy tilga o'girishi, oddiy o'girma emas, asl matnning yangi madaniy-tarixiy va siyosiy sharoitlarga moslashtirilishining yorqin namunasidir. Ogahiyning debocha (kirish qismi) dagi o'zgartirishlari nafaqat uslubiy tanlovlarni, balki chuqur mafkuraviy va siyosiy adaptatsiyalarni ham aks ettiradi. Bu jarayonni Sa'diyning forscha asliyati bilan qiyoslash orqali Ogahiyning tarjima faoliyatining mohiyatini ochib berish mumkin.

Shayx Sa'diyning «Guliston»i fors mumtoz adabiyoti an'analariga muvofiq, aniq bir strukturaga ega debocha bilan boshlanadi. Bunda Allohga hamd va Rasulullohga na'tdan so'ng, asarning yozilish sabablari, so'zning qudrati tarannum etiladi va nihoyat, o'sha davrning qudratli hukmdorlariga bag'ishlov keltiriladi. Sa'diy o'z asarini Salguriy sultonlari Otabek Abubakr Sa'd ibn Zangiy (ابوبکر بن سعد بن زنگی), Sa'd binni Abubakr binni Sa'd (سعد بن ابوبکر بن سعد) va Abubakr binni Abu Nasr (ابوبکر بن ابونصر) kabi homiylarga bag'ishlagan. Masalan, Sa'diyning «Guliston» debochasidagi hamd qismi quyidagicha boshlanadi:

مِنَّة خدای را عز و جل که طاعتش موجب قربت است و به شکر اندرش مزید نعمت. هر نفسی که فرو می‌رود ممد حیات است و چون بر می‌آید مفرح ذات. پس در هر نفسی دو نعمت موجود است و بر هر نعمتی شکری واجب

Minnat-e Khoday ra azz-o jall ke ta'atash mojeb-e qorbat ast va be shokr andarash mazid-e ne'mat. Har nafasi ke foro mī-ravad mamadd-e hayat ast va chon bar mī-āyad mofarreh-e zat. Pas dar har nafasi do ne'mat mojūd ast va bar har ne'mati shokrī vājeb.

Mazmuni: Alloh taologa cheksiz hamd bo'lsinki, Unga itoat yaqinlikka sababdir va Unga shukr ne'matning ziyoda bo'lishiga. Har bir kirgan nafas hayotni uzaytiruvchidir va har bir chiqqan nafas jonga rohat baxsh etuvchidir. Demak, har bir nafasda ikki ne'mat mavjuddir va har bir ne'mat uchun shukr vojibdir.

Bu qismdan so'ng, Sa'diy asarning maqsadini «Dar sababi ta'lifi kitob» bobida batafsil bayon etadi, unda pand-nasihat, ijtimoiy-axloqiy tarbiya berish kabi didaktik maqsadlar ustuvorlik qiladi.

Ogahiy tarjimasidagi debochaning transformatsiyasi siyosiy homiylikning yangilash masalasiga qaratilgan. Shuning uchun Ogahiy Sa'diyning hamd va na't qismlarini asl ma'nosini saqlab qolgan holda tarjima qilgan. Masalan, uning hamd qismi quyidagicha: «Ogahiy tarjimasidan parcha: «Minnati bemuntaho Haq jalla va 'alogakim, toati qurbat maqomi irtifo'ining mujibi va shukri ne'mat anvo'ining izdiyodi sababidur. Har nafaskim, og'izdin tashqari chiqar, hayot adadi va yana qaytib ichkari kirar zoti mufar-

[1] Бертельс, Е. Э. История персидско-таджикской литературы. – Москва: Изд-во АН СССР, 1960. – С. 78-85.

rahidur. Bas, har nafasda ikki ne'mat vujudga kelur va har ne'matga munosib shukr vojib bo'lur».

Bu tarjima forscha asliyatga juda yaqin. Biroq, Ogahiy Sa'diyning debochadagi asosiy o'zgarishni hukmdorlarga bag'ishlov qismida amalga oshirgan. U asl matndagi Otabek Abubakr Sa'd ibn Zangiy va uning avlodlariga atalgan madhiyalarni butunlay tushirib qoldirib, ular o'rniga o'z davrining hukmdori Muhammad Rahimxon II madhini keltirgan.

Shayx Sa'diyda «Dar sababi ta'lifi kitob» bobi mavjud bo'lsa, Ogahiy uning o'rniga o'zining tarjima qilish sabablarini keltiradi: «...faqirga hazrat shayx Sa'diy rahmutullohi alayhning «Guliston» otlig' kitobin turk[iy] tili bila tarjima qilmoq xizmatin buyurdi. Va bu muborak xizmat sharofatidin iftixorim farqi amomasin quyoshning zarrin amomalig' hamomasi boshidin oshurdi. Agarchi faqir ushbu ovonda bir shiddatlig' kasal mehnatidin nihoyatsiz notavon va g'oyatsiz xastajon erdim, ammo ul janobning mundoq marhamati dorushshifosidin sihhat, balki quvvat sharbati lazzatin totib, baqadri hol bu xujastafol xizmatni butkarmakka majolim boricha jiddu jahd ishin zuhurga yetkurdim».

Bu parchada Ogahiy tarjimaning Muhammad Rahimxon II buyrug'i bilan amalga oshirilganini, uning shaxsiy holati (kasallik)ga qaramay, bu xizmatni ado etishga intilganini ko'rsatadi. Bu, tarjimaning pragmatik sabablarini va tarjimonning bu jarayondagi shaxsiy ishtirokini yaqqol namoyon etadi.

Ogahiy «Guliston»ning xotima bobini deyarli o'zgartirmay tarjima qilgan. Bu, uning tarjima faoliyatidagi tanlovli yondashuvini ko'rsatadi: u debochadagi siyosiy va mafkuraviy jihatlarni o'z davriga moslashtirgan holda, asarning asosiy didaktik va axloqiy xulosalarini o'zgartirmay saqlab qolgan. Bu, xotimaning universal ma'naviy-axloqiy xususiyatga ega ekanligi, ya'ni uning mazmuni zamonaviy siyosiy kon'yunkturaga bog'liq bo'lmaganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, bu Ogahiyning Sa'diyga bo'lgan hurmati va asarning asl mohiyatini saqlab qolishga intilganini ko'rsatadi.

Ogahiyning «Guliston» tarjimasi debochasidagi bunday transformatsion yondashuv, uning tarjima strategiyasi va badiiy mahoratini yaqqol ko'rsatadi. Uning faoliyati shunchaki bir tildan boshqasiga mexanik o'girish emas, balki asarni yangi madaniy-siyosiy makonga «ko'chirish» jarayoni bo'lgan. Bu jarayonda tarjimonning shaxsiyati, uning dunyoqarashi, davrning mafkuraviy talablari va adabiy an'analari o'zaro uyg'unlashgan. Bu o'zgarishlar Ogahiyning tarjima merosini o'rganishda qiyosiy matnshunoslik, tarixshunoslik va sotsiolingvistika metodlarining kompleks qo'llanilishi zarurligini tasdiqlaydi. Asarning asl va tarjima nusxalarini qiyosiy tahlil qilish orqali, biz nafaqat Ogahiyning lingvistik va uslubiy tanlovlarini, balki davrining ijtimoiy-siyosiy va madaniy o'zgarishlarini ham chuqurroq anglashimiz mumkin. Ushbu tadqiqotlar Ogahiyning o'zbek adabiy merosidagi o'rnini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Rezume: The article examines the current issues of informing students about classical manuscript sources, preparing them as specialists, translating classical sources, publishing them based on manuscript copies, preparing a complete scientific text of manuscript works, conducting new scientific and theoretical research in the field of source studies and textual studies, and the translation of Sa'di Shirozi's «Guliston» into Turkish by Muhammad Riza Ogahi, the differences in the text of the work, and the unique interpretation of words. The textual study of the «Guliston» manuscripts, Ogahi's translation of the work, the linguistic and translation problems encountered in the manuscript with item number 7768, and the interpretation of words are studied.

Резюме: В статье рассматриваются актуальные вопросы информирования студентов о классических рукописных источниках, подготовки их как специалистов, перевода классических источников, их издания на основе рукописных копий, подготовки полного научного текста рукописных произведений, проведения новых научно-теоретических исследований в области источниковедения и текстологии, а также перевод «Гулистан» Саади Ширози на турецкий язык Мухаммадом Ризой Огахи, различия в тексте произведения и уникальная интерпретация слов. Изучаются текстология рукописей «Гулистан», перевод произведения Огахи, лингвистические и переводческие проблемы, встречающиеся в рукописи с номером позиции 7768, и интерпретация слов.